



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTI MASALALARI

EKOLINGVISTIKA – TILSHUNOSLIKNING IJTIMOIIY YO‘NALISHIDA YANGI SOHA: NAZARIYA VA QARASHLAR

Feruzabonu Niyozova

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ekolingvistika XXI asr tilshunosligida shakllanayotgan yangi, multidisiplinar ilmiy yo‘nalish bo‘lib, maqolada ekolingvistika atamasining paydo bo‘lishi, ekologik tafakkur va tilda inson hamda tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganishdagi ahamiyati yoritiladi, ekolingvistikaning asosiy nazariy tamoyillari, ekologik diskurs tahlili, milliy mentalitet va ekologik qadriyatlarning til orqali ifodalanish shakllari hamda o‘zbek tilshunosligidagi istiqbollari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: ekolingvistika, ekologik diskurs, lingvoekologiya, madaniy kod, til tizimi, globalizatsiya.

Аннотация: Эколингвистика рассматривается как новое, междисциплинарное научное направление, формирующееся в лингвистике XXI века. В данной статье раскрываются происхождение термина «эколингвистика», значение экологического мышления и роль языка в изучении взаимосвязи человека и природы, освещаются основные теоретические принципы эколингвистики, формы отражения национального менталитета и экологических ценностей через язык, а также перспективы развития эколингвистики в узбекском языкознании.

Ключевые слова: эколингвистика, экологический дискурс, лингвоэкология, культурный код, языковая система, глобализация.

Annotation: This article analyzes ecolinguistics as a newly emerging, interdisciplinary scientific field in 21st-century linguistics. It explores the emergence of the term “ecolinguistics” the significance of ecological thinking, and the study of the interconnection between humans and nature through language. The article discusses the main theoretical principles of ecolinguistics, the analysis of ecological discourse, the expression of national mentality and ecological values through language, and the prospects of ecolinguistics in Uzbek linguistics.

Keywords: ecolinguistics, ecological discourse, linguoecology, cultural code, language system, globalization.

XXI asr insoniyat uchun texnologik taraqqiyot bilan birga ekologik inqiroz asri sifatida ham namoyon bo‘ldi. Aholi sonining keskin ortishi, resurslardan ortiqcha foydalanish, urbanizatsiya va axborot oqimining ko‘pligi nafaqat biologik, balki madaniy va lingvistik muhitga ham ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ana shu jarayonda til va ekologiya o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qiluvchi yangi fan – ekolingvistika shakllandi. Ekolingvistika tilni inson faoliyatining ekologik kontekstida, ya‘ni tabiat, madaniyat va tafakkur uyg‘unligida o‘rganadi. [Karimov M. 43] U an‘anaviy tilshunoslik yo‘nalishlaridan farqli o‘laroq, tilni faqat aloqa vositasi emas, balki atrof-muhit bilan uyg‘un hayotiy tizimning bir qismi sifatida talqin etadi. Bu yondashuv til, tafakkur va ekologik ong o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sirni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ekolingvistikaning shakllanishi va mohiyati u qadar uzoqqa borib taqalmaydi. “Ekolingvistika” termini dastlab 1990-yillarda Daniya olimi Xaugen (Einar Haugen) tomonidan “lingvistik ekologiya” shaklida fanga kiritilgan. U tilni tirik organizmga qiyoslab, “til o‘z muhitida yashaydi va rivojlanadi” degan g‘oyani ilgari surgan. Keyinchalik bu konsepsiya A.Fill, P.Myuhlheysler, G.Stibbe kabi tadqiqotchilar tomonidan kengaytirildi. Til inson tafakkurining shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Insonning tabiatga munosabati, ekologik qadriyatlarga qarashi va xatti-harakatlari lingvistik dunyo manzarasida aks etadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Ona zamin”, “tabiat ne‘mati”, “suv hayot manbayi” kabi birliklar ekologik ongning qadimiy ildizlarini ifodalaydi. Shuningdek, “Daraxt ekkan – el ekkan”, “Suvni asragan – hayotni asraydi” kabi maqollar ekologik mas‘uliyatni milliy tafakkur darajasida ifodalab keladi. Bu iboralar tilning ekologik funksiyasini, ya‘ni insonni tabiat bilan uyg‘unlikda yashashga undovchi

ma'naviy kod sifatida xizmat qilishini ko'rsatadi. [Yo'ldoshev S., 62] Ekolingvistikaning amaliy tarmoqlaridan biri – ekologik diskurs tahlili bo'lib, bu yo'nalishda matn va nutqdagi ekologik mazmunlar, tabiat va inson munosabatini ifodalovchi til birliklari o'rganiladi. Masalan, OAVdagi "global isish", "yashil energetika", "uglerod izi", "barqaror rivojlanish" kabi iboralar orqali til ekologik ongini shakllantirish vositasiga aylanmoqda. Shuningdek, reklama, siyosiy nutq, ekologik kampaniyalarda til orqali ekologik qadriyatlarni shakllantirish strategiyalari tahlil qilinadi. Ekologik diskurs tahlili quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: leksik-semantik tahlil – ekologik terminlarning paydo bo'lishi va ma'nosi; pragmatik tahlil – ekologik xabarlarining ta'sirchanligi; kognitiv yondashuv – inson ongidagi ekologik modellarni ochish.

XXI asrda globalizatsiya til muhitiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyoda 7000 ga yaqin til mavjud bo'lsa-da, ularning yarmi yo'qolish xavfi ostida. Til o'limi madaniy xilma-xillik va ekologik tafakkurning ham qisqarishiga olib kelmoqda. Ekolingvistika bu jarayonni "til ekotizimining buzilishi" deb baholaydi. Tilning yo'qolishi – bu faqat kommunikativ vositaning emas, balki butun ekologik madaniyatning yo'qolishidir. Chunki har bir til o'z xalqining tabiatga bo'lgan munosabatini, urf-odatlarini, tabiatga nisbatan ehtiyotkorlikni ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, ekolingvistika lingvistik xilma-xillikni saqlashni global ekologik barqarorlikning muhim qismi sifatida ko'radi.

Xulosa qilib aytganda, ekolingvistika – bu yangi, ammo zarur fan sohasi bo'lib, u tilni ekologik tizim sifatida o'rganadi va til – tafakkur – tabiat uchligini uyg'un holda tahlil qiladi. U ekologik ongini rivojlantirish, tilni madaniy va tabiiy muhitning ajralmas qismi sifatida anglash imkonini beradi. Bugungi global muhitda har bir millat o'z tilini asrash orqali nafaqat madaniy, balki ekologik barqarorlikni ham ta'minlaydi. Shu ma'noda ekolingvistika XXI asr tilshunosligining eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fill, A., & Mühlhäusler, P. The Ecolinguistics Reader: Language, Ecology and Environment. Continuum., 2001.
2. Karimov M. Ekolingvistika va uning o'zbek tilshunosligidagi istiqbollari. "Til va madaniyat" jurnali, 4-son, 2020.
3. Stibbe A. Ecolinguistics: Language, Ecology and the Stories We Live By. Routledge, 2015.
4. Yo'ldoshev S. Tilning ekologik funksiyasi va milliy qadriyatlar. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali, 2-son, 2021.